

TRANSPLANTOLOGIYA, YOHUD TIBBIYOT YURAGI

XAYRULLAYEVA FARANGIZ HUSAN QIZI
TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI



EL- YURTIMIZ AZALDAN SHIFOKORLARNI, INSON SALOMATLIGINI ASRASHDEK EZGU VA SAVOBLI ISHGA BUTUN BORLIG'INI BAG'ISHLAGAN FIDOYI ZOTLAR, DEB BILADI VA HAMISHA QADRLAYDI. CHUNKI ODAMLAR SIZLARGA O'ZLARINING ENG BEBAHO BOYLIKLARINI- HAYOTLARINI ISHONIB TOPSHIRADI. BUYUK BOBOMIZ ABU ALI IBN SINONING : "INSON DARDIGA DARMON BO'LMOQ – OLIJANOBLIKNING ENG YUKSAK NA'MUNASIDIR", DEGAN SO'ZLARI HAM BU FIKRNI TASDIQLAYDI.

SH.M.MIRZIYOYEV

ANNOTATSIYA: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING QONUNCHILIK PALATASI TOMONIDAN 2022-YIL 26- APREL KUNI QABUL QILINGAN " INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRASNPLANTATSIYASI TO'G'RISIDA" GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNINI KO'RIB CHIQIB , O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 84 – MODDASIGA MUVOFIQ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING SENATI QAROR QILDI. QARORGA

MUVOFIQ “ INSON A’ZOLARI VA TO’QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI TO’G’RISIDA” GI O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI MA’QULLANDI VA TRANSPLANTATSIYA JARAYONLARINI SIFATLI AMALGA OSHIRILISHI UCHUN ZARUR BO’LGAN QONUNOSTI HUJJATLAR ISHLAB CHIQLDI. SHU ASOSDA HOZIRGI KUNGA KELIB TRANSPLANTOLOGIYA YO’NALISHIGA YO’L OCHILDI. BU MAQOLADA TRANSPLANTOLOGIYA BO’YICHA MA’LUMOTLAR KELTIRILGAN: TRANSPLANTOLOGIYA TARIXI, RIVOJLANISHI, O’ZBEKISTONDAGI BU YO’NALISH BO’YICHA ILK VA SO’NGGI YUTUQLAR. TRANSPLANTOLOGIYA TIBBIYOTNING ENG MURAKKAB, O’TA MAS’ULIYATLI VA AYNI DAMDA O’TA KERAKLI, EHTIYOJ OSHIB BORAYOTGAN YO’NALISHLARDAN BIRI SANALADI. HECH KIMGA SIR EMASKI, ILGARI ZARURAT TUFAYLI KO’PGINA BEMORLAR CHET ELLARGA BORIB, 40 MING 50MING HATTOKI 200MING AQSH DOLLARIGACHA BO’LGAN NARXLARDA ANA SHU JARROHLIK AMALIYOTINI O’TKAZISHGA MAJBUR BO’LAYOTGAN EDI. MANA ENDI SHUNDAY NOYOB VA MURAKKAB OPERATSIYALAR O’ZIMIZNING YURTIMIZDA HAM AMALGA OSHIRIB BORILMOQDA. BIZ BU NATIJALARDAN FAXRLANISHIMIZ VA BUNDAY NATIJALARNI YANADA YUKSAKLARGA KO’TARISHIMIZ LOZIM.

KALIT SO’ZLAR: TRANSPLANTOLOGIYA, KARDIOTRANSPLANTOLOGIYA, DONOR, RETSIPIYENT, SUN’IY ORGAN, JIGAR, BUYRAK, QANDLI DIABET, ROZILIK PREZUMPTSIYA MODELI, NOROZILIK PREZUMPTSIYA MODELI, ANONIM VARIANT, VAZIRLAR MAHKAMASI.

KIRISH. TRANSPLANTOLOGIYA BU NIMA? DEGAN SAVOL TUG’ILADI. BU SOHAGA ALOQASI BO’LMAGAN KISHILAR “ TRANSPLANTOLOGIYA NIMA?” DEYISHSA JAVOB BERA OLISHMASLIGI MUMKIN. TRANSPLANTOLOGIYA – BU ORGANLARNI TRANSPLANTATSIYA QILISH, YA’NI KO’CHIRIB O’TKAZISH, SUN’IY ORGANLAR YARATISH BILAN SHUG’ULLANUVCHI TIBBIYOTNING ASOSIY SOHALARIDAN BIRI.

TRANSPLANTOLOGIYADA DONOR VA RETSIPIYENT DEGAN TUSHUNCHALAR MAVJUD.

DONOR- O’Z ANATOMIK TUZILMALARINI BEMOR ORGANIZMIGA TRANSPLANTATSIYA QILISH UCHUN IXTIYORIY RAVISHDA BERADIGAN INSON.

RETSIPIYENT - TERAPEVTIK MAQSADDA INSON A'ZO YOKI TO'QIMALARI KO'CHIRILGAN SHAXS. YA'NI DONORDAN OLINGAN A'ZO YOKI TO'QIMANI QABUL QILGAN SHAXS. TRANSPLANTOLOGIYANING BIR NECHA TURLARI BOR:

KSENOTRANSPLANTATSIYA

ALLOTRANSPLANTATSIYA

AVTOTRANSPLANTATSIYA

KSENOTRANSPLANTATSIYA - BOSHQA BIOLOGIK TURDAN ORGANLAR YOKI TO'QIMALARNI KO'CHIRIB O'TKAZISH . BU TRANSPLANTATSIYA ILK BOR 1997- YILDA HINDISTONDA YURAK XIRURGIYASI CHO'CHQANING YURAGINI INSONGA KO'CHIRIB O'TKAZILGAN . OPERATSIYA MUVAFFAQQIYATLI BO'LIB O'TDI . AMMO BEMOR BIR HAFTA O'TGACH INFEKSIYADAN ASORATLAR TUFAYLI OLAMDAN O'TDI .

RASMIY JAHON SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTI TA'RIFI BO'YICHA , KSENOTRANSPLANTATSIYA :

JONLI HUYAYRALARNI , TO'QIMALARNI YOKI HAYVONLARNING KELIB CHIQUADIGAN ORGANLARINI ODAMLARGA TRANSPLANTATSIYA QILISH;

INSON TANASI SUYUQLIGI YOKI JONLI BO'LMAGAN INSON HUYAYRALARI YOKI TO'QIMALARI BILAN ALOQA QILGAN HUYAYRALARNI TRANSPLANTATSIYA QILISH.

ALLOTRANSPLANTATSIYA (YOKI GOMOTRANSPLANTATSIYA)- GENETIK VA IMMUNOLOGIK JIHATDAN FARQ QILADIGAN INSON ORGANIZMI TRANSPLANTAT DONORI.

AUTOTRANSPLANTATSIYA (YOKI BA'ZI MANBALARDA AUTOLOGIK TRANSPLANTATSIYA DEB HAM ATALADI) – TRANSPLANTAT RETSIPIYENTNING O'ZI SHU TRANSPLANTATNING DONORI BO'LADI. YA'NI, INSONNING O'ZIDAN BIROR BIR TO'QIMANI O'ZIGA KO'CHIRIB O'TKAZISH. MASALAN: OG'IR KUYISH PAYTIDA SHIKASTLANMAGAN QISMLARDAN KUYGAN QISMLARGA TERI KO'CHIRIB O'TKAZISH , LEYKOZLAR, LIMFOMALAR VA KIMYOGA TA'SIRCHAN XAVFLI O'SMALARDA YUQORIDOZALI O'SMAGA QARSHI KIMYOVIIY TERAPIYADAN KEYIN ILIK YOKI GEMOPOETIK O'ZAKLI HUYAYRALARNI AUTOTRANSPLANTATSIYA QILISH.

ASOSIY. TRANSPLANTATSIYANING TARIXIGA NAZAR TASHLASAK ILK BOR XV ASRDA SAINTS KOSMOS VA DAMIAN TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN. BU OPERATSIYADA KASAL ODAMGA MURDANING OYOG'INI KO'CHIRIB O'TKAZISHGAN. ORGANNI

ODAMDAN ODAMGA KO'CHIRISHGA URINISH BIRINCHI MARTA 1933-YILDA XERSONDA VORONOV TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN.

BIRINCHI YURAK OPERATSIYASI SSSR 1968-YILDA ALEKSANDR VISHNEVSKIY TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN.

BIRINCHI MUVAFFAQIYATLI TRANSPLANTATSIYA 1987-YIL 12-MARTDA VALERIY SHUMAKOV TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN.

HOZIRGI KUNDA TRANSPLANTOLOGIYA BO'YICHA JUDA KATTA YUTUQLARGA ERISHILMOQDA. MISOL UCHUN, 2022-YIL 31-YANVARDA AQSHNING ALABAMA SHTATIDA JARROHLAR CHO'CHQA BUYRAGINI MIYASI O'LGAN ODAMGA TRASNPLANTATSIYA QILISHDI. OLIMLAR KELAJAKDA BU AMALIYOTNI TIRIK BEMORLARDA SINAB KO'RISHGA UMID QILISHMOQDA. BU TADQIQOTGA ALABAMA UNIVERSITETI XODIMI DOCTOR JEYMI LOK YETAKCHILIK QILGAN. SO'NGGI OYLARDA HAYVON ORGANLARINI ODAM TANASIGA KO'CHIRIB O'TKAZISH BO'YICHA BIR NECHA TADQIQOTLAR OLIB BORILDI. O'TKAN YILNING KUZIDA MERILEND UNIVERSITETI TIBBIYOT MARKAZI JARROHLARI HAYOTI XAVF OSTIDA BO'LGAN BEMORGA GENETIK JIHATDAN O'ZGARTIRILGAN CHO'CHQA YURAGI TRANSPLANTATSIYA QILINDI VA BU BEMOR HOZIRGI KUNDA HAM YASHAB KELMOQDA.

O'ZBEKISTONDA BOSHQA SOHALARDA BO'LGANI KABI TRANSPLANTOLOGIYA YO'NALISHIDA HAM MUHIM QADAMLAR TASHLANMOQDA:

SO'NGGI IKKI YIL DAVOMIDA RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN XIRURGIYA ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZIDA 230 DAN ORTIQ BUYRAK, 6 TA JIGAR

RESPUBLIKA SHOSHILINCH TEZ YORDAM ILMIY MARKAZIDA ESA 68 TA BUYRAK TRANSPLANTATSIYASI OPERATSIYASI O'TKAZILIB, JAMI 300 NAFARDAN ZIYOD FUQAROLARIMIZNING YUQORI TEXNOLOGIK OPERATSIYALAR UCHUN XORIJIY DAVLATLARGA BORISHNING OLDI OLINDI.

2018-YIL 6-MART KUNI BIRINCHI MARTA QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORGA BUYRAK KO'CHIRIB O'TKAZILDI. OPERATSIYA RAHBARI: FAZLIDDIN BAHRIDDINOV BO'LGAN.

O'TGAN 2017-YILDA MAMLAKAT TIBBIYOTI UCHUN MUHIM BURILISHLAR YASALGAN YIL SIFATIDA TARIXGA MUHRLANDI. BIRLAMCHI TIBBIYOT TIZIMI, SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM, DORI DARMON TA'MINOTI HAMDA IXTISOSLASHTIRILGAN TIBBIY XIZMAT YO'LIDA YIRIK ISLOHOTLAR AMALGA OSHIRILDI. SHUNDAY

YANGILIKLARDAN BIRI PREZIDENTIMIZ SHAVKAT MIRZIYOYEV TASHABBUSI VA TOPSHIRIG'I BILAN MAMLAKAT TIBBIYOT TARIXIDA ILK MAROTABA ORGANLAR TRANSPLANTATSIYASI BO'YICHA ZAMONAVIY OPERATSIYALARNI OSHIRISHNI BOSHLANGANLIGI BO'LDI. AYNIDAMDA USHBU FAOLIYAT VAZIRLAR MAHKAMASINING 2017-YIL 23-OKTYABRDAGI " YAQIN QARINDOSHLAR ORASIDA BUYRAK (YOKI JIGAR BO'LAGI)NI TRANSPLANTATSIYA QILISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI VAQTINCHALIK NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA" GI QARORI BILAN TARTIBGA SOLINGAN. BU QAROR SURUNKALI BUYRAK VA JIGAR KASALLIKLARINING TERMINAL BOSQICHI(YA'NI KASALLIKNING ENG YUQORI CHO'QQISI)DAGI BEMORLARNI YUQORI TEXNOLOGIYALI TIBBIY YORDAM BILAN TA'MINLASH VA YAQIN QARINDOSHLAR O'RTASIDA TRANSPLANTATSIYA TASHKIL ETISH MAQSADIDA QABUL QILINGAN. BU NIZOMDA TRANSPLANTATSIYA BAJARISH TARTIBI, TRANSPLANTATSIYANI BAJARISHGA KO'RSATMA VA QARSHI KO'RSATMALARNI, DONOR VA RETSIPIYENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI BELGILAB BERADI.

O'TGAN YILDAN BOSHLAB AKADEMIK V.VOHIDOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ILMIY- AMALIY XIRURGIYA MARKAZIDA YAQIN QARINDOSHLAR O'RTASIDA BUYRAK KO'CHIRIB O'TKAZISH BO'YICHA OPERATSIYALAR MUVAFFAQIYATLI BAJARIB KELINMOQDA.

O'SHA HAMMAGA MA'LUM VA MASHHUR 15 SOAT DAVOM ETGAN OPERATSIYA HAM SHU MUASSASADA BO'LIB O'TGAN. BU OPERATSIYA TAFSILOTLARI HAQIDA HAM QISQA TO'XTALIB O'TMOQCHIMAN . OPERATSIYAMIZNING BOSH QAHRAMONI PARKENTLIK 26 YOSHLI BEMOR UBAYDULLA DADAXO'JAYEV UZOQ YILLARDAN BUYON JIGAR SIRROZI KASALLIGIGA CHALINIB JIGAR YETISHMOVCHILIGIDAN AZIYAT CHEKAR EDI. UNING AHVOLINI DORI-DARMONLAR BILAN HAM MUQOBIL HOLATDA SAQLAB TURISHNING ILOJI BO'LMADI. BUGUN BIZNING FIDOIY SHIFOKORLARIMIZ O'Z MAHORATI, BILIM VA AMALIY TAJRIBASI BILAN BIR INSONNING HAYOTINI SAQLAB QOLISHGA ERISHISHDI VA KEYINCHALIK SHUNDAY BEMORLARGA AMALIY YORDAM KO'RSATISH UCHUN O'Z TAJRIBALARINI YO'LGA QO'YISHDI. BU OPERATSIYADA MARKAZDAGI O'ZBEK VA RUS JARROHLARI HAMKORLIGIDA 26 YOSHLI BEMORGA UNING 30 YOSHLI AKASIDAN JIGARINING BIR BO'LAGI TRANSPLANTATSIYA QILINDI. OPERATSIYA JARAYONIDA 21 NAFAR

SHIFOKOR VA 10 NAFAR O'RTA TIBBIYOT XODIMLARI ISHTIROK ETISHDI. BU JARAYONGA PUXTA TAYYORGARLIK OLIB BORILGAN. JARAYONDA QATNASHGAN MUTAXASSISLAR AQSH, FRANSIYA , ROSSIYA FEDERATSIYASI, TURKIYA KABI DAVLATLARDA AYNAN SHU SOHA BO'YICHA MALAKA OSHIRIB QAYTISHDI. ENG AVVALO DONOR VA RETSIPIYENT BU JARAYONGA 3 OY DAVOMIDA TAYYORLANDI. OPERATSIYA QARIYB 15 SOAT DAVOM ETDI. HOZIRGI NATIJALARGA KO'RA BEMOR VA DONORNING UMUMIY SALOMATLIGI NORMAL HOLATDA EKANLIGINI KO'RSATMOQDA. BU ILK BORA O'TKAZILGAN MURAKKAB OPERATSIYA BO'LISHIGA QARAMASDAN MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRILDI.

TRANSPLANTOLOGIYADAGI ASOSIY MUAMMOLARDAN BIRI DONOR ORGANLAR YETISHMASLIGIDIR. O'LIK INSONDAN A'ZOLAR VA TO'QIMALARNI TANADAN AJRATIB OLIH DONORLIKNING ENG TARQALGAN TURI HISOBLANADI. DONORLIKNING AYNAN USHBU TURI BIR QATOR ETIK- HUQUQIY VA DINIY MUAMMOLAR BILAN BOG'LIQ, ULAR ORASIDA ENG MUHIMLARI QUYIDAGILARDIR:

INSON O'LGANLIGINI TASQIDLASH MUAMMOSI;

O'LGANDAN SO'NG O'Z A'ZOLARIDAN IXTIYORIY RAVISHDA VOZ KECHISH HAQIDA ISTAK BILDIRISH MUAMMOSI;

DIN NUQTAI NAZARIDAN TRANSPLANTATSIYA QILISH UCHUN INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARI MANBAI SIFATIDA INSON TANASIDAN FOYDALANISHGA YO'L QO'YMASLIK MUAMMOSI.

BU MUAMMOLARNING YECHIMI BIR QATOR XALQARO, MILLIY VA CONFESSIONAL DARAJADAGI HUUJATLARDA BERILADI.

MURDA DONORLIGINING HUQUQIY JIHLARINI TARTIBGA SOLUVCHI 3 TA MODEL MAVJUD:

ROZILIK PREZUMPTSIYASI MODEL - AVSTRIYA , BELGIYA, VENGRIYA, ISPANIYA VA BOSHQA DAVLATLARNING QONUNCHILIGI ROZILIKNING USTUVORLIGIGA ASOSLANGAN. BUNDA MURDADAN A'ZOLARNI OLIHGA QARSHILIK QILADIGAN TO'SIQ ASOSAN SHAXS HAYOTLIGIDA BUNGA QARSHILIK BILDIRGAN HUQUQIY RASMIYLASHTIRILGAN NOROZILIK BO'LISHI ZARUR. BUNDA NOROZILIK VAFOT ETGAN SHAXSNING YAQINLARIDAN QABUL QILINADI, AMMO KO'PINCHA AMALDA QISQA MUDDATLAR ICHIDA ULAR BILAN BOG'LANISHNING ILOJI BO'LMAYDI. BU MODELGA AYRIMLAR "SO'RALMAGAN ROZILIK" DEB TA'RIF BERISHADI.

NOROZILIK PREZUMPTSIYA MODEL - AQSH, KANADA, GERMANIYA VA BOSHQA DAVLATLAR QONUNCHILIGI USHBU

MODELGA ASOSLANGAN. BU NISBATAN MUKAMMAL VA FUQARO HUQUQLARINI SAQLASH TALABLARIGA TO'LA JAVOB BERADI. BUNDA HALOKATGA UCHRAGAN HOLATLARDA DONOR BO'LISH UCHUN FUQARONING HAYOTLIGIDA YOKI YAQINLARI TOMONIDAN RASMIYLASHTIRILGAN ROZILIK BO'LISHI KERAK.

ANONIM VARIANT – BUNDAY MUNOSABAT SOBIQ ITTIFOQ DAVLATLARIDA MAVJUD BO'LGAN. 1937- YIL SSSR DA XALQ KOMISSARLARI KENGASHINING QARORI QABUL QILINGAN BO'LIB , BEMORLARGA MURDA A'ZO VA TO'QIMALARINI KO'CHIRIB O'TKAZISH TARTIBI HAQIDA HAQIDA TARTIBI HAQIDA FARMOYISH BERISH HUQUQI SOG'LIQNI SAQLASH XALQ KOMISSARIYATIGA BERILGAN. A'ZO VA TO'QIMALARNI OLISH SUD- TIBBIY EKSPERT TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN. BUNGA MARHUMNING YAQINLARIDAN RUXSAT SO'RALMAGAN .

SHUNI TA'KIDLAB O'TISH JOIZKI, TRANSPLANTOLOGIYANING RIVOJLANISHI TIBBIYOTNING YUTUG'I SIFATIDA QARALSADA, DONOR ORGANLARNING YETISHMASLIGI, MAMLAKATNING DONOR A'ZOLAR BILAN TA'MINLAY OLMASLIGI NATIJASIDA JAMIYAT UCHUN XAVFLI BO'LGAN ODAM SAVDOSI KABI GLOBAL MUAMMOLARNI YUZAGA KELTIRADI.

SHU PAYTGACHA TRANSPLANTOLOGIYA SOHASIGA TA'ALLUQLI QONUNYIY ME'YORLARDAN BA'ZILARINI AYTIB O'TISHIMIZ MUMKIN:

1987-YILDAGI BUTUN DUNYO TIBBIYOT ASSOTSATSIYASINING “INSON ORGANLARINI TRANSPLANTATSIYA QILISH TO'G'RISIDA” GI DEKLARATSIYASI;

1989-YILDA GONG KONGDA O'TKAZILGAN 41- BUTUN DUNYO TIBBIYOT ASSAMBLEYASINING “FETAL TO'QIMA TRANSPLANTATSIYASI HOLATI” NOMLI HUJJATI;

1996-YILDAGI YEVROPA MASLAHAT BIOMEDITSINAVA INSON HUQUQLARI KONVENSIYASI;

1992-YIL 22-DEKABRDA QABUL QILINGAN ROSSIYA FEDERATSIYASINING “ INSON ORGANLARI VA TO'QIMALARINI TRANSPLANTATSIYA QILISH TO'G'RISIDA” GI QARORI;

YUQORIDA TA'KIDLAB O'TILGAN ODAM SAVDOSI VA BOLA O'G'IRLASH KABI MUAMMOLARGA YECHIM TOPPISH MAQSADIDA 2008-YIL TURKIYANING ISTANBUL SHAHRIDA YIG'ILISH BO'LIB O'TDI VA BU YIG'ILISHDA HAR BIR DAVLAT O'ZINING TIBBIYOT SOHASIDAGI DONOR YETISHMOVCHILIGINI HAL QILISHI, SHUNINGDEK , DONOR

A'ZOLAR BILAN TA'MINLAY OLIHI KERAKLIGI TO'G'RISIDA MULOHAZA YURITILDI.

XULOSA. YURTIMIZDA TRANSPLANTOLOGIYANING BARCHA SOHALARINI QONUNYI JIHATDAN TARTIBGA SOLISH MAQSADIDA BIR NECHTA NORMATIV HUJJATLAR QABUL QILINGAN. BULAR JINOYAT KODEKSINING 135-MODDASI "ODAM SAVDOSI", 137-MODDASI "ODAM O'G'IRLASH" VA 133-MODDASI "ODAM TA'NA A'ZOLARI VA TO'QIMALARINI OLIB QO'YISH VA TRANSPLANTATSIYA QILISH SHARTLARI VA TARTIBINI BUZISH TO'G'RISIDA" BO'LIB, SHU SOHAGA BAG'ISHLANADI. TRANSPLANTOLOGIYA UMUMAN TIBBIYOT SOHASINI RIVOJLANTIRIB BUNDANDA A'LO NATIJALARGA ERISHISH BIZ YOSHLARNING QO'LIMIZDA. PREZIDENTIMIZ TASHABBUSLARI VA BIZNING SHIJOATIMIZ BILAN TEZ KUNLARDA TIBBIYOT BO'YICHA VA UMUMAN BARCHA SOHA BO'YICHA DUNYODA YETAKCHI O'RINLARGA KO'TARILISHIMIZGA HECH HAM SHUBHA YO'Q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. YURTBOSHIMIZ MIRZIYOYEV SH.MNING SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI VAKILLARI BILAN OCHIQ MULOQOTIDA SO'ZLAGAN NUTQI.
2. DOTSENT, FAN DOKTORI Z.M. MUHAMEDOVA – BIOETIKA 2006.
3. YO'LDOSHEV N.M ; SAIDALIXODJAYEVA O.Z ; SAIDOV A.B . TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING NASHRIYOT VA MUHARRIRIYAT BO'LIMI. 2018.
4. KUN.UZ
5. HUYAYRA.UZ
6. ICLLOUDHOSPITAL.COM
7. AVITSENNA.UZ
8. HEALTHY-FOOD-NEAR-ME.COM
9. TOP.UZ
10. OPENSOURCE.UZ